



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY RIVOJLANISHIDA BOLALAR ADABIYOTI BILAN TANISHTIRISH IJTIMOYIY ZARURAT SIFATIDA

Mirzaxalilova Nazokat Mirzaolim qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi 2-boosqich talabasi Tel:+998995841606 Email:mirzaxalilovanazokat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limning maqsadi, bolalar adabiyotining rivojlanish tarixi, o'zbek hamda jahon bolalar adabiyotining mashhur namoyondalari va ular yozgan asarlarining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tutgan ahamiyati hamda bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda badiiy adabiyotning ijtimoiy zarurat ekanligi batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh davri, maktabgacha ta'limning maqsadi, bolalar adabiyotining namoyondalari, bolalar adabiyoti predmeti, bolalar adabiyotining o'ziga hos xususiyatlari, badiiy adabiyot, ijtimoiy zaruriyat, ijodiy rivojlanish, bolalar adabiyotining omili, syujet, fantaziya, ertak.

Аннотация: В данной статье происходящие с ребенком в дошкольном возрасте, цели дошкольного образования, история развития детской литературы, подробно описаны известные представители узбекской и мировой детской литературы, значение их произведений в организациях дошкольного образования и подробно объясняется, что художественная литература является социальной необходимостью в развитии творческой активности детей.

Ключевые слова: дошкольный возраст, цель дошкольного образования, проявления детской литературы, предмет детской литературы, особенности детской литературы, художественная литература, социальная необходимость, творческое развитие, фактор детской литературы, сюжет, фантази, сказка.

Abstract: This article the purpose of preschool education, the history of the development of children's literature, famous representatives of Uzbek and world children's literature and the importance of their works in preschool education organizations and it is explained in detail that fiction literature is a social necessity in the development of children's creative activity.

Key words: preschool age, purpose of preschool education, manifestations of children's literature, subject of children's literature, specific features of children's literature, fiction, social necessity, creative development, factor of children's literature, plot, fantasy, fairy tale.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimini o'rganish va chuqur bilimga ega bo'lishda innovatsion texnologiyalarning ham o'rni katta. Shu jumladan pedagogika yo'nalishida ham yangi innovatsion texnologiyalar, tizimlashtirilgan ma'lumotlardan keng foydalanilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasi ham, albatta, bu texnologiyalardan bahramand bo'ldi.

Bolalarga bilim berishda innovatsion texnologiyalar yordamida turli kitoblar, mashg'ulotlar bilan tanishtirish, ularni amaliyotda qo'llash ancha qulay va qiziqarli bo'ldi. Maktabgacha yosh davrida bola atrof-muhitga ta'sirchan va juda qiziquvchan



bo'ladi. Bu davrda bolaning qobiliyati shakllanadi, atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga o'z reaksiyasini bildiradi. Bola ulg'aygani sayin dunyoqarashi, fikrlashi o'zgarib boradi, yon-atrofidagi har bir obyektning ovozi, harakatini o'rganadi va tahlil qiladi. Bu davrda bola juda sezgir, bazi hollarda juda ta'sirchan, taqlidchi bo'ladi. Uning hayot haqidagi ilk taassurotlari paydo bo'la boshlaydi, o'zining ijobiy va salbiy fikriga ega bo'ladi. O'zi istagan ishlarni urush-janjallar bilan bo'lsa ham bajarishni istaydi. Bunday hollarda tarbiyachi bolani turli kitoblarga, mashg'ulotlarga qiziqitira olishi kerak.

Bola qiziqishlarini namoyon etishida ota-onasi bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim tashkilotining ham o'rni juda muhim. Chunki maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom, aqlan va jismonan rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishiga, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qishga tayyorlab beradi. Maktabgacha ta'limning maqsadi ham bolarni maktabga, o'qishga tayyorlash, uni sog'lom har tomonlama yetuk, o'z fikriga ega mustaqil shaxs qilib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, qiziqishlaridan kelib chiqib ma'lum faoliyatga yo'naltirishdan iboratdir. Shu sababli bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Buning natijasida bolalar adabiyoti ham rivojlana boshladi. Bolalar adabiyotining shakllanishi 19-asrning ikkinchi yarmi 20-asrning boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatlariga to'g'ri keladi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziylarning "yangi usuldagi" maktablari, yaratgan 50ga yaqin alifbo va o'qish kitoblarining o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Bolalar adabiyotining predmeti: bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarning badiiy-uslubiy, janriy, psixologik xususiyatlari ularga oid ilmiy-nazariy qarashlar, tadqiqot umumlashmasi, shuningdek bolalar ijodkorlari hayoti va ijodini o'rganish kabilar tashkil qiladi.

O'zbek bolalar adabiyoti paydo bo'lishida bir qator omillar sabab bo'ldi. Masalan:

- Xalq og'zaki ijodi;
- Jadid va ma'rifatparvarlarning pedagogik risolalari bolalarbop asarlari;
- Tashqi va qardosh xalqlarning bolalar adabiyoti;
- Mumtoz va didaktik adabiyotlar-pandnomalar, axloqiy-tarbiyaviy asarlar, diniy va dunyoviy kitoblar.

20-asrning 20-30-yillarida Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Shokir Sulaymon, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min va boshqa ijodkorlarning asarlari o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida, maxsus adabiyot sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbek bolalar adabiyotida ayniqsa, adabiy ertak janri rivojlandi. Jumladan: Hamid Olimjonning "Oygul va Baxtiyor", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak" singari adabiy ertaklari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan, shakl va mazmun jihatdan puxta badiiy asarlar sirasiga kiradi.

50-60-yillarda G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Nazir Safarovning "Ko'rgan kechirganlarim" qissalari nasriy bolalar adabiyotiga munosib ulush bo'lib qo'shildi. Xudoyberdi To'xtaboyevning



"Sehrli qalpoqcha", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" asarlari ham sara asarlar qatoridan o'rin oldi.

80-yillarda bolalar adabiyotida Anvar Obidjon, Safar Barnoyev, Rauf Tolipov, Qambar O'tayev, Hamza Imonberdiyev va boshqa ijodkorlarning asarlari yosh avlodni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan e'tiborga sazovor bo'ldi.

Keyinchalik jahon va rus bolalar adabiyotidagi asarlar ham o'zbekchaga tarjima qilina boshlandi. Jumladan, rus bolalar adabiyotining namoyondalaridan: I.A. Krilovning masallari, A.S. Pushkinning "Baliqchi va baliq haqidagi ertak" nomli asari, K.D. Ushinskiyning hamda L.N. Tolstoyning bir nechta asarlari tarjima qilindi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyotga qiziqtirishimizda ertaklarning ornini juda muhim. Bolalarning yoshiga qarab ertaklarni ham guruhlarga ajratishimiz mumkin. Masalan:

Kichik guruhlar: hayvonlar haqidagi ertakalar. "Echki bolalari", "Tulki va turna", "Susambil", "Bo'ri bilan tulki". Hayvonlar haqidagi ertaklardan bolalar yaxshi-yomonni, do'stlikni, yaxshilikga doimo yaxshilik qaytishi haqidagi fazilatlarni o'rganadilar.

O'rta guruhlar: sehrli ertaklar. "Oltin tarvuz", "Ur to'qmoq". Sehrli ertaklar bolalarning fikrlashini kengaytiradi, dunyoga o'zgacha nigoh bilan qaraydi, doimo orzusiga intilib yashashni o'rgatadi.

Katta guruhlar: maishiy ertakalar. "Kenja botir va Semurg", "Zumrad va Qimmat", "Ugh og'a-ini botirlar", "Hunarli yigit". Maishiy ertaklarda hayotiylik aks etgan bo'ladi. Bolalar har qanday vaziyatda to'g'ri yo'l tanlashni, insoniylik bilan xulosa chiqarishni o'rganadilar.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos hususiyati ham shuki, u o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy hususiyatlaridandir. Bolalar bop barcha asarlar yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o'y-kechinmalari, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o'z ifodasini topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kitobga qiziqtirish, turli o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namoyondalari asarlari bilan tanishtirish, ularda kitobga bo'lgan qiziqishni orttirish eng muhim maqsadlarimizdandir. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar adabiyotiga berilgan e'tiborning asosiy hususiyati bu uning harakatga boyligidir. Buning natijasida bolalar adabiyotida syujetga bo'lgan talab ham ortadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda bo'lishini talab etadi. Bolalar bunday syujetlarga boy adabiyotlar orqali o'zlarining qanday rol ijro etishlari natijasida, hayotda ham qisman shu rolda ijro etgan qahramonlarining harakterini namoyon qilishadi. Bolalarda imo-ishora, mimika, yuz va qo'llarning umumiy harakatlanishi, fikrlash hamda dunyoqarashning o'zgarishi, atrofida sodir bo'layotgan voqealarga o'zlarining shaxsiy fikrlarini bildira olish ko'nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni adabiyotga qiziqtirish uchun takliflar:

Bolalar tahsil olayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni adabiyotga qiziqtirishda tarbiyachilar samarali texnologiyalardan foydalana olishi;



Bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini orttirish uchun ota-onalar ham yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari, farzandlarining qiziqishlariga befarq munosabatda bo'lmasliklari;

Bolalarning hohish-istaklaridan kelib chiqqan holda, ularning fikrlarini inobatga olib adabiyotlarni tanlash;

Ota-onalar, bolalar va tarbiyachi ustozlar hamkorligida “Kitobxon ona-kitobxon bola” shiori ostida turli bellashuv va bahslar olib borish;

Oy yakunida eng ko'p kitob mutolaa qilgan oila va farzandlarini taqdirlash;

Bolalar eng yoqtirgan ertak yoki hikoyalarni o'zlari sahnada ijro etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. T: O'qituvchi, 2002
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. T: O'qituvchi, 2011
3. Jamilova Bashorat O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma
4. Jumaboyev M. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Majmua - T: O'qituvchi, 1996
5. O'zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. T: O'qituvchi, 1969

Qo'shimcha saytlar:

1. www.lex.uz sayti
2. researchgate.net sayti
3. art.jdpu.uz sayti